XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil 22 - avgust VI-58-84-3-50-K/23 Zafarobod tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2023 yil 2-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan mablag‘ yo‘naltirish to‘g‘risida

Tuman mahalliy budjetining 2023 yil 2-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan mablag‘ yo‘naltirish maqsadida, O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, “Budjet kodeksi”ning 126-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasining 2023 yil 17-avgustdagi 02-77-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Zafarobod tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.b A.Do‘stnazarovga, tuman mahalliy budjetining 2023 yil 2-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan:

- “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlari harajatlarini moliyalashtirish maqsadida 42 000 000 (qirq ikki million) so‘m mablag‘ni «Ayollar daftari» jamg‘armasiga;

- “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 42 000 000 (qirq ikki million) so‘m mablag‘ni «Yoshlar daftari» jamg‘armasiga;

- “Ochiq budjet” axborot portali orqali g‘olib deb topilgan loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 84 000 000 (sakson to‘rt million) so‘m mablag‘ni “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga;

- moddiy yordam va ko‘makka muhtoj ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 42 000 000 (qirq ikki million) so‘m mablag‘ni “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga;

- Xalq deputatlari Zafarobod tuman Kengashining 2023 yil 31 yanvardagi “Zafarobod tumani tashkil etilganligining 50 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risida”gi VI-55-13-3-50-K/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Obod maskanim – Zafarobodim” nomli kitobini chop etish uchun 14 500 000 (o‘n to‘rt million besh yuz ming) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga;

- Zafarobod tumani hokimligi tomonidan kam ta’minlangan 15 nafar fuqarolarga berilgan xonadonlarni ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun 20 250 000 (yigirma million ikki yuz ellik ming) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga;

- tuman futbol jamoasini futbol bo‘yicha 2-liga viloyat chempionati 2023 yil mavsumi musobaqasida ishtirok etishga badal puli uchun 10 000 000 (o‘n million) so‘m hamda forma harid qilish uchun 5 000 000 (besh million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga ajratish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi S.Abduazimovga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

4. Zafarobod tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.b A.Do‘stnazarov ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (U.Ravshanov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. J.Adilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Ў.Рахманов**